



ISLOM MA'RIFATI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom institutining ma'naviy-ma'rifiy,
ilmiy-adabiy jurnali

ISSN 2992-9091
№1 2026



ISLOM MA'RIFATI

№1
2026

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnali



TAHRIR HAY'ATI:

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR

*O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi,
muftiy, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi faxriy doktori*

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV

Siyosiy fanlar doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Farxod KARIMOV

Siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Ilhom BEKMIRZAYEV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Ashirbek MO'MINOV

*Tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev
nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)*

Rafik MUXAMETSHIN

*Rossiya islom universiteti rektori, siyosiy fanlar
doktori, professor (Rossiya)*

Mustafa KARATAŞ

*Istanbul universiteti ilohiyot fakulteti Hadis
kafedrası professori (Turkiya)*

Rashid ZOHIDOV

Filologiya fanlari doktori, professor

Ne'matullo MUHAMEDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY

Ilohiyot fanlari doktori (Misr)

Shovosil ZIYODOV

Tarix fanlari doktori (DSc)

Toji NOROV

Falsafa fanlari doktori

Ma'murjon ERKAYEV

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Ulug'bek HASANOV

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Uktam POLVONOV

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

Abdurasul ABDULLAYEV

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari
bo'yicha qo'mitaning 2026-yil 6-apreldagi
03-07/2923-sonli xulosa xatiga asosan
tayyorlandi.*



Muassis

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTI

Bosh muharrir:

Uyg'un G'AFUROV

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

"Islom ma'rifati" ilmiy jurnali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 8-maydagi qarori bilan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2023-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 077254 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100002, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Zarqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

E-mail: islom-instituti@umail.uz

Web-sahifa: <https://oliymahad.uz/>

Telefon: (+99871) 227-42-37

MUNDARIJA **ISLOMSHUNOSLIK**

Uyg'un G'AFUROV.

Turkiyada teologiya (islom ilohiyoti) ta'limi: tarixiy rivojlanish va zamonaviy model.....4

HADISSHUNOSLIK

Saidahmadxon G'AYBULLAYEV.

Hadislarni tushunishda "Ta'oruz va tarjih" qoidalarining ahamiyati.....9

ISLOM AQIDASI

رحمونوف مسلمة.

أكمل الدين محمد البابرتي وتحليل مؤلفاته في علم الكلام.....18

ISLOM HUQUQI

Nigora XAKIMOVA, Ma'rifat AMINJONOVA.

Faxrul islom Pazdaviy ilmiy faoliyatining tarixiy asoslari.....26

Boburmirzo BOTIROV.

Ijtimoiy huquq va erkinliklarning islom huquqidagi asoslari.....35

Nargiza XALXODJAYEVA.

Islom huquqida bola huquqlarining mazmuni va huquqiy yondashuvlari.....44

ISLOM TARIXI

Ne'matullo MUXAMEDOV.

O'rta asrlarda shosh (toshkent) muhaddislarining marv olimlari bilan hamkorligi.....54

ISLOM VA JAMIYAT

Muhabbatxon AGZAMOVA.

Islom manbalarida atrof-muhitga munosabat va Yangi O'zbekistonda ekologik barqarorlik hamda ma'naviy mas'uliyatni shakllantirishga oid islohotlar.....63

SIYOSATSHUNOSLIK

Muxtor NAZIROV.

"Markaziy Osiyo hamjamiyati" – mintaqaviy integratsiyaning yangi sifat bosqichi uchun institutsional asos sifatida.....73

Jamshid ALIYEV.

"Hay'ati tahrirish Shom" tashkilotida mafkuraviy jarayonlar: tarixiy va zamonaviy narrativlar tahlili.....82

TARIX

Pirnazar RAJAPOV.

Sulton Sanjar (1118-1157) davrida saljuqiylar davlatida aniq va tabiiy fanlar rivoji.....91

Abrorxo'ja TO'XTAYEV.

"Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Chor Rossiyasi bosqini va Mulla Solihbek Oxundning Toshkent mudofaasidagi rahbarligi tasviri.....99

Muxtor NAZIROV

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Xalqaro munosabatlar" kafedrası dotsenti. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

11, A.Qodiriy, 100011, Toshkent, O'zbekiston.

e-mail: m.nazirov@iia.uz,

Tel: +99871 244 31 62

"MARKAZIY OSIYO HAMJAMIYATI" – MINTAQAVIY INTEGRATSIYANING YANGI SIFAT BOSQICHI UCHUN INSTITUTSIONAL ASOS SIFATIDA

"THE CENTRAL ASIAN COMMUNITY" AS AN INSTITUTIONAL FOUNDATION FOR A NEW QUALITATIVE STAGE OF REGIONAL INTEGRATION

KIRISH

Bugungi globallashuv zamonida, tezkor davrda xalqaro munosabatlar tizimida mintaqaviy integratsiya jarayonlari yangi mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, global beqarorlik, geosiyosiy qarama-qarshiliklar va iqtisodiy bog'liqlikning chuqurlashuvi sharoitida qo'shni davlatlar o'rtasida ishonch, muvofiqlashuv va institutsional hamkorlikni mustahkamlash ustuvor ahamiyatga ega. Bu jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda, deyish mumkin.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida davlatlararo hamkorlikning yangi institutsional shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 2018-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqada ishonchni mustahkamlash, o'zaro muvofiqlashuvni kuchaytirish va integratsion salohiyatni oshirishga qaratilgan muloqot mexanizmi sifatida shakllandi. Avval boshda ushbu format noras-

miy va deklarativ xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 2020-yillarning o'rtalaridan boshlab u institutsional jihatdan mustahkamlana boshladi.

Zamonaviy Markaziy Osiyo XIX asrdagi imperiyaviy ekspansiya davrida yo'qotilgan o'zining geostrategik rolini qayta tiklash bosqichini boshdan kechirmoqda. Tarixchi Arnold Toynbee ta'kidlaganidek, tarixan "Oks va Yaksart" (ya'ni Amudaryo va Sirdaryo) havzasi barcha jahon yo'llari kesishgan markaziy hudud bo'lib xizmat qilgan (Safoev, S., 2022:13-14).

Bugungi kunda mintaqani nihoyat "Katta o'yin"ning passiv obyektiga maqomidan chiqib, xalqaro siyosatning faol subyektiga aylanmoqda. Bu jarayon akademik Vasily Bartoldning transkontinental savdo tiklangan taqdirda mintaqaning tarixiy ahamiyati muqarrar ravishda qayta tiklanishi haqidagi bashoratini ham tasdiqlaydi (Niyazi, A., 2019:43-44).

Aytish kerakki, so'nggi yillarda mintaqa davlatlari o'rtasidagi muloqot yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Xususan, Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlar tizimida tobora mustaqil mintaqaviy subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, 2025-yil mintaqa davlatlari o'rtasida ishonchni mustahkamlash, ko'p yillik muammolarni hal etish va tashqi sheriklar bilan hamkorlikni institutsionallashtirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari-ning chuqur integratsiyalashuvi jarayoni ularning yagona siyosiy va iqtisodiy makon yaratishga intilishini aks ettiradi.

ASOSIY QISM

2025-yil 16-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Yettinchi Maslahat uchrashuv doirasida qabul qilingan qaror, ya'ni formatning "Markaziy Osiyo hamjamiyati" deb qayta nomlanishi va Ozarbayjonning to'laqonli a'zo sifatida qabul qilinishi mazkur evolyutsiyaning mantiqiy davomi bo'ldi. Bu qaror Markaziy Osiyo mintaqaviy arxitekturasini faqat besh davlat doirasida emas, balki Yevroosiyo makonidagi kengroq bog'liqlik tizimi kontekstida qayta anglash zaruratini yuzaga chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Mintaqamiz davlat rahbarlarining yaqinda Toshkentdagi Maslahat uchrashuvi chog'ida biz integratsiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun Markaziy Osiyo hamjamiyati strategik formatini tashkil qilish g'oyasini ilgari surdik.

Ozarbayjonni Markaziy Osiyo hamjamiyati formatiga to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilish to'g'risidagi qaror tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qadam Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasida strategik bog'liqlik va barqarorlikni kuchaytirishi shubhasiz" (Murojaatnoma, 2025).

Ozarbayjonning yangi integratsion tuzilmaga qo'shilishi qay darajada institutsional, geoiqtiso-

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi mintaqaviy hamkorlik arxitekturasini evolyutsiyasi tahlil qilinadi. 2018-yildan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida shakllana boshlagan yangi mintaqaviy hamkorlik arxitekturasining evolyutsiyasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Maqolada mintaqaviy yaqinlashuv jarayonlarining siyosiy, iqtisodiy va institutsional omillari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilib, Maslahat uchrashuvlari mexanizmining oddiy siyosiy muloqot platformasidan bosqichma-bosqich mintaqaviy hamkorlikning barqaror institutiga aylanish dinamikasi ochib berilgan. Maqolada neofunksionalizm, "yumshoq institutsionalizm" va Karl Doychning "xavfsizlik hamjamiyati" konsepsiyalariga izoh beriladi. Alohida e'tibor 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Maslahat uchrashuvlari formatiga Ozarbayjonning to'la huquqli a'zo sifatida qo'shilishi hamda ushbu formatni "Markaziy Osiyo hamjamiyati"ga transformatsiya qilish tashabbusining nazariy va amaliy ahamiyatiga qaratilgan. Ushbu hodisa geoiqtisodiy va geosiyosiy jihatdan Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayishi sifatida talqin qilinadi. Xulosa qismida Markaziy Osiyo hamjamiyati klassik integratsion tuzilmalardan farqli ravishda suverenitetni saqlagan holda muvofiq lashtiruvchi platforma sifatida shakllanayotgani, uning istiqboli esa transport, savdo va infratuzilma loyihalarining amaliy natijalariga bog'liqligi asoslab beriladi.

Abstract. This article analyzes the evolution of the emerging architecture of regional cooperation in Central Asia. It provides a comprehensive assessment of regional rapprochement processes developing since 2018, emphasizing the interconnection of political, economic, and institutional factors. The study reveals the gradual transformation of the Consultative Meetings mechanism from a simple platform for political dialogue into a stable institution of regional cooperation. The theoretical framework is based on neofunctionalism, soft institutionalism, and Karl Deutsch's concept of a security community. Particular attention is given to the 2025 initiative proposed by the President of the Republic of Uzbekistan to transform the Consultative Meetings format into the "Central Asian Community" and to admit Azerbaijan as a full member. This development is interpreted as strengthening geo-economic and geopolitical interdependence between Central Asia and the South Caucasus. The conclusion argues that, unlike classical integration structures, the new formation is evolving as a coordination platform that preserves state sovereignty, while its future effectiveness will depend on the practical implementation of transport, trade, and infrastructure projects.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo hamjamiyati, mintaqaviy integratsiya, Maslahat uchrashuvlari, institutsionallashtirish, geoiqtisod, neofunksionalizm, Ozarbayjon, transport-logistika yo'laklari, mintaqalararo bog'liqlik.

Key words: Central Asian Community, regional integration, Consultative Meetings, institutionalization, geoeconomics, neofunctionalism, Azerbaijan, transport and logistics corridors, interregional connectivity.

diy va geosiyosiy mantiqqa asoslangan va bu qaror Markaziy Osiyo integratsiya modelining xususiyatlarini qanday o'zgartiradi? Bu savol ko'pchilikni o'ylantiradi.

Markaziy Osiyo hamjamiyatini strategik format sifatida shakllantirish tashabbusi mintaqaviy integratsiya nazariyalari, xususan neofunksionalizm va mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, funksional hamkorlik doiralarning kengayishi va institutsional o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga qaratilgan tizimli qadam sifatida talqin etilishi mumkin.

Mazkur format doirasida Ozarbayjon Respublikasini Markaziy Osiyo hamjamiyatiga to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilish to'g'risida qabul qilingan qaror mintaqaviy hamkorlik arxitekturasining geosiyosiy qamrovini kengaytiruvchi muhim institutsional yangilik hisoblanadi.

Ushbu qaror Karl Doychning "xavfsizlik hamjamiyati" konsepsiyasi nuqtayi nazaridan baholanar ekan (Adler, E., & Barnett, M., 1998:4-5), Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalari o'rtasida o'zaro ishonch, siyosiy muvofiqlashuv va barqaror hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish uchun qo'shimcha institutsional zamin yaratilayotganini kuzatish mumkin.

Shu ma'noda, Ozarbayjonning ushbu hamjamiyatga integratsiyalashuvi mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash orqali transportlogistika, energetika va xavfsizlik sohalaridagi funksional hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq mazkur jarayonlarning samaradorligi ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi manfaatlar uyg'unligi, institutsional mexanizmlarning aniqligi va ularning amaliy ijrosi darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

Darhaqiqat, 2025-yil 16-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan sammit Markaziy Osiyo mintaqaviy arxitekturasida tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi. 2018-yildan buyon norasmiy muloqot mexanizmi sifatida mavjud bo'lgan davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarining "Markaziy Osiyo hamjamiyati"ga aylantirilishi mintaqaning yaqin tarixida birinchi marta shakllantiril-

gan, formal institutsionallashtirilgan mintaqaviy hamkorlik tuzilmasini yuzaga keltirdi.

Ushbu transformatsiya deklarativ sheriklikdan funksional mexanizmlar va uzoq muddatli strategik loyihalarga asoslangan amaliy integratsiyaga o'tishni anglatadi. Ozarbayjonning to'la huquqli oltinchi a'zo sifatida qabul qilinishi esa hamjamiyatning geografik va geosiyosiy qamrovini an'anaviy "Markaziy Osiyo beshligi" doirasidan tashqariga kengaytirdi.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyo hamjamiyatining hozirgi holatini to'g'ri anglash uchun uning yetti yillik evolyutsiyasini tahlil qilish zarur. "Inqirozlarni boshqarish" modelidan keng ko'lamli mintaqaviy ambitsiyalarni amalga oshirish bosqichiga o'tish quyidagi muhim bosqichlar orqali amalga oshirilgan tizimli institutsionallashtirish natijasida imkonli bo'ldi:

2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Maslahat uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusi o'sha davr sharoitida inqilobiy tusga ega edi. Ya'ni ilk bor Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari tarixida tashqi tuzilmalar yoki vositachilarsiz davlat rahbarlarining muntazam muloqot mexanizmi yaratilgan edi. 2018-yilda Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida birinchi sammit o'tkazildi va u "strategik noaniqlik" siyosatidan voz kechib, siyosiy ishonchga asoslangan hamkorlikni boshlab berdi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida" nomli maqolasida ta'kidlanganidek, ushbu format "ishonch, ochiqlik va umumiy manfaatlarini anglashga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi" (Mirziyoyev Sh.M., 2025). Demak, mintaqada birgalikda rivojlanish va umumiy taqdirni barpo etish borasida yangi manfaatlar muvozanati shakllandi.

2019-2022-yillarda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi uchrashuvlar hamkorlik normalari va amaliyotini shakllantirish davri bo'ldi. Jumladan, 2019-yilda Toshkent sammitida "Maslahat uchrashuvlari reglamenti" qabul qilinib, u Tashqi ishlar vazirliklari hamda ekspert guruhlarida

jasida muntazam hamkorlikning institutsional tuzilmasini shakllantirdi. Boshqacha aytganda, mintaqaviylashuvning mustahkamlanish davrini boshlab berdi.

2023-yilda operatsion barqarorlik sari qadam tashlandi. Sababi Milliy koordinatorlar kengashi tashkil etildi. Bu doimiy tahliliy va monitoring mexanizmi sifatida faoliyat yurita boshladi.

Qirg'izistonda o'tgan to'rtinchi uchrashuvda ilk bor 2022-2024-yillarga mo'ljallangan mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish yo'l xaritasi qabul qilindi. U qonunchilik, savdo, investitsiya, ta'lim, sport, viza rejimlari va xavfsizlik kabi yigirmadan ortiq sohani qamrab oldi (Svante E. Cornell, 2025).

Ushbu davrning asosiy xususiyati shunda ediki, uchrashuvlar uzoq yillar davomida yechilmay kelgan muammolarni hal qilish platformasiga aylandi. Shular jumlasiga:

- Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi chegarani demarkatsiya qilish bo'yicha muzokaralar;
- Transport aloqalarini tiklash;
- Energetika va suv resurslari sohasida hamkorlikni qayta yo'lga qo'yish.

2024-yil avgust oyida Ostona sammitida bo'lib o'tgan oltinchi uchrashuvda "Markaziy Osiyo – 2040" mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ilk bor 2040-yilgacha bo'lgan uzoq muddatli integratsiya gorizontini belgilab olindi. Shu bilan birga, maslahatlashuv formatini doimiy mintaqaviy tuzilmaga aylantirish zarurligini ko'rsatdi. Konsepsiya savdo, energetika, transport, ekologiya, raqamli bog'liqlik va ayniqsa, yagona markaziy osiyolik madaniy identiklikni mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oldi (Zakon.kz, 2024). Sirasini aytganda, integratsiya jarayonlari strategik jihatdan qayta yo'nalish oldi.

2025-yil noyabrda Toshkentdagi yettinchi uchrashuv tub burilish nuqtasi bo'ldi. Mintaqaviy platformaning transformatsiyasida misli ko'rilmagan o'zgartirgan qarorlar qabul qilindi. Eng muhim yangilik – avval mavjud bo'lmagan formal tashkiliy tuzilmaning yaratilishi bo'ldi. Pre-

zident Sh.Mirziyoyev tomonidan mintaqaviy birlikni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin bo'lgan bir qator takliflar ilgari surildi (7-Maslahat uchrashuvi, 2025). Taklif etilgan yangi arxitektura uchta funksional ustunga tayanadi:

Kotibiyat tashkilotning ma'muriy yadrosi bo'lib, unda rotatsion raislik mexanizmi (Yevropa Ittifoqi Kengashi modeli asosida) qo'llanadi. Kotibiyat – uchrashuvlarni tayyorlash, sammitlar orasida muvofiqlashtirish va qarorlar ijrosini monitoring qilish uchun mas'ul organ. Bu mintaqada birinchi bor doimiy apparat paydo bo'lganini anglatadi. Bu tizim manfaatlar paritetini ta'minlaydi hamda mintaqaviy kun tartibining uzluksizligini kafolatlaydi.

Oqsoqollar kengashi – nufuzli davlat arboblari, olimlar va madaniy yetakchilardan iborat innovatsion organ bo'lib, "yumshoq kuch"ning o'ziga xos vositasi hisoblanadi. Uning vazifasi mintaqaxalqlari orasida madaniy-gumanitar muvoqotni mustahkamlash, avlodlar uzviyligini ta'minlash va umumiy mintaqaviy identiklikni rivojlantirishdan iborat. Bu institutning o'ziga xosligi shundaki, u mintaqa tabiatiga mos, an'anaviy bo'lgan kollektiv qaror qabul qilish amaliyotiga – maslahatga tayanadi. Ushbu organ, ma'lum ma'noda, umumiy an'analar va qadriyatlarga murojaat qilish orqali "qattiq" siyosiy ziddiyatlarni chetlab o'tish imkonini beradi.

Milliy koordinatorlar maqomini oshirish, ya'ni ular davlat rahbarlarining maxsus vakillariga aylantirilmoqda. Maxsus vakillar instituti davlat rahbarlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa uchun operativ kanal bo'lib xizmat qiladi. U inqirozli vaziyatlarda pozitsiyalarni muvofiqlashtirish jarayonida byurokratik xarajatlarni minimalashtirishga yordam beradi.

Shu bilan bir qatorda yordamchi tuzilmalar ham ish boshladi. Infratuzilmani rivojlantirish kengashi – bosh vazir o'rinbosarlari darajasidagi organ bo'lib, yirik transport va logistika loyihalarini muvofiqlashtiradi.

Savdo va investitsiyalar vazirlari kengashi ham o'z faoliyatini boshladi. Birinchi yig'ilishi 2025-yil 13-noyabrda bo'lib o'tgan ushbu soha-

viy tuzilma mintaqa davlatlari iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishda, turli to'siqlarni olib tashlashda o'z hissasini qo'shadi.

Umuman olganda, mazkur institutsional o'zgarishlar Markaziy Osiyo mamlakatlari deklarativ formatlardan kelishilgan tashabbuslarni monitoring qilish va amalga oshirishni ta'minlashga qodir mexanizmlarga o'tayotganini ko'rsatadi.

Bundan qanday xulosa chiqadi? Ushbu evolyutsiya siyosiy yetakchilar diplomatiyasidan mustahkam institutsional sheriklikka o'tishni anglatadi. "Yagona geoiqtisodiy mintaqa"ni shakllantirish davlatlarning subyektligini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda yaqinlashuv jarayonini qaytarilmas va qisqa muddatli siyosiy tebranishlardan himoyalangan holga keltiradi.

TAHLIL

"Maslahat uchrashuvlari" atamasining "Markaziy Osiyo hamjamiyati" (MOH) bilan almashirilishi chuqur ramziy ma'noga ega. Bu vaqtinchalik muloqot platformasidan barqaror siyosiy hamjamiyatga o'tishni anglatadi. "Hamjamiyat" tushunchasi siyosiydan tashqari madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy birlikni ham nazarda tutadi. Markaziy Osiyoda faol kechayotgan jarayonlar mintaqaviy integratsiya nazariyalarining bir qator yo'nalishlariga, xususan, neofunksionalizm, regionalizmning "yumshoq institutsional" modeli va geoiqtisod konsepsiyasiga mos keladi. Neofunksionalizm davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning bosqichma-bosqich siyosiy muvofiqlashuvga olib kelishini ta'kidlasa, yumshoq institutsionalizm suverenitetni cheklamasdan turib ham hamkorlikni chuqurlashtirish mumkinligini asoslaydi.

MOHning tuzilmaviy institutlari davlatlardan yuqori turuvchi vakolatlariga ega emasligi, kengashish – asosiy muloqot vositasi sifatida saqlanib qolishi tez o'zgaruvchan geosiyosiy voqeliklar va asimmetrik tahdidlar sharoitida mintaqaviy birlikka erishish va uni bir maromda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa MOHni klassik integratsion ittifoqlardan farq qiluvchi, suverenitetni saqlab qolgan holda muvofiqlashuvni ta'minlovchi platforma sifatida tavsif-

lashga asos beradi. Hamjamiyatni institutsionalashtirish tizimli barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Geoiqtisodiy yondashuv esa davlatlarning tashqi siyosiy qarorlari iqtisodiy manfaatlar, transport-logistika imkoniyatlari va bozorlarga chiqish masalalari bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ozarbayjonning MOHga qo'shilishi aynan shu geoiqtisodiy mantiqdan kelib chiqadi.

Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlar formatida mehmon sifatida ishtirok etishdan to'la-qonli a'zolikka o'tishi bosqichma-bosqich rivojlangan siyosiy jarayon mahsulidir. Davlat rahbarlari o'rtasidagi intensiv diplomatik aloqalar, yuqori darajadagi o'zaro tashriflar va qo'shma loyihalar ushbu qaror uchun zarur institutsional muhitni shakllantirdi.

Ekspertlar fikricha, Ozarbayjonning Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlariga "qo'shilishi" bir qator hal qiluvchi omillar bilan izohlanadi. Siyosiy nuqtayi nazardan, Ozarbayjon MOH doirasida o'zini tashqi aktor emas, balki mintaqaviy manfaatdor subyekt sifatida namoyon qilmoqda. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining ham uni mintaqaviy arxitekturaning ajralmas qismi sifatida qabul qilayotganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim omil geoiqtisodiy ratsionallik bilan bog'liq. Markaziy Osiyo davlatlarining dengizga chiqish imkoniyati cheklangan bo'lib, tashqi bozorlarga chiqish masalasi transport infrazuzilmasiga bog'liq. Ozarbayjon Kaspiy dengizi orqali transkaspiy aloqalarni, Kavkaz va Turkiya orqali Yevropa bozorlariga chiqishni ta'minlovchi logistik tugun vazifasini bajaradi.

Markaziy Osiyo davlatlari neft, gaz, uran va nodir metallar kabi xomashyo eksportchilari hisoblanadi va eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. Sharq-G'arb hamda Shimol-Janub transport yo'laklari kesishgan nuqtada joylashgan Ozarbayjon ajralmas vositachiga aylanmoqda. Mintaqaviy tahlilchilar ta'kidlashicha, Ozarbayjon ishtirokisiz logistika va savdo koridorlarini tizimlashtirish mumkin emas (Exclusive.kz, 2025).

Integratsiya sohasi	Strategik mazmuni va ko'rsatkichlari
Transkaspiy yo'nalishi (O'rta yo'lak)	Logistik yutuq: so'nggi 3 yil ichida yuk tashish hajmi 90% ga oshdi; shimoliy yo'nalishlarni chetlab o'tish imkoniyati yaratildi.
Energetika xabi	Qozog'iston va Turkmaniston uglevodorodlarini Ozarbayjon infratuzilmasi orqali Yevropa Ittifoqi bozorlariga eksport qilishni diversifikatsiya qilish.
"Yashil" energetika	2025-yilgi kelishuv asosida Kaspiy orqali ekologik toza elektr energiyasi va vodorod eksporti ("Yashil yo'lak")ni amalga oshirish.
Mineral diplomatiya	Resurslarni birgalikda boshqarish: mintaqa dunyo uran bozorining qariyb 50% ini nazorat qiladi va noyob metallar zaxirasiga boy.

Bundan qanday xulosa chiqadi? "C6" formatiga kengayish mintaqaning muzokara pozitsiyalarini tubdan o'zgartiradi. Strategik muhim minerallar (uran va nodir yer elementlari) ustidan umumiy nazorat Hamjamiyatni AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqi uchun ajralmas hamkorga aylantiradi hamda "mineral diplomatiya"ni kuchli geosiyosiy vosita sifatida qo'llash imkonini beradi.

Izchil rivojlanayotgan ushbu hamkorlik ko'p qirrali va o'zaro manfaatli xususiyatga ega. Ahamiyatli shuki, fundamental qadriyatlar va umumiy til bilan anglashiladigan turkiy dunyo bilan bog'langan O'zbekiston ushbu ulkan geosiyosiy makonning markaziy ustunlaridan biridir.

"O'rta yo'lak" (Xitoyni Yevropa bilan Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Ozarbayjon, Kavkaz va Turkiya orqali bog'laydi. Ushbu marshrutni amaliy ishlatishda Ozarbayjon hal qiluvchi rol o'ynaydi, xususan Kaspiy dengizidagi portlar orqali. – Muallif izohi) va "Zangezur" transport yo'nalishlari MOH doirasida iqtisodiy integratsiyani moddiy jihatdan ta'minlovchi asosiy infratuzilmaviy loyihalar sifatida qaraladi.

Ma'lumki, turkiy davlatlar geografik joylashuvi Shimol – Janub, Sharq – G'arb yo'nalishlarida barcha transport uzellarini bog'lash imkonini beradi. Shuningdek, mintaqa Yevropa va Osiyoni bog'lovchi vositalarga ega. Bu borada Xitoydan boshlanib, Kaspiy dengizi orqali Kavkaz-

ga, so'ngra Yevropaga cho'zilgan "O'rta yo'lak"ni rivojlantirish zarurligi ko'p bora ta'kidlangan.

"O'rta yo'lak"ning deyarli butun hududi turkiy davlatlar hududidan o'tadi (Gruziya bundan mustasno, Sharqdan G'arbgacha bo'lgan uzunligi 542 km). Butun yo'lning umumiy uzunligi 11 ming kilometrdan ortiq bo'lib, Xitoy va Yevropa Ittifoqini Markaziy Osiyo, Kavkaz, Turkiya va Sharqiy Yevropa orqali bog'lovchi temir yo'l hamdir (Nazirov M., 2025:117)

Tadqiqotchi U.Biturayev fikricha, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi tajovuzkor urush boshlanganidan buyon va geosiyosiy kuch markazlari o'rtasidagi raqobat kuchayishi fonida "O'rta yo'lak" orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi (Эргашев Б., Примова С., Бегджанова З., 2025:27). Biroq, "O'rta yo'lak" hali ham Rossiya orqali o'tuvchi Shimoliy yo'lakning transport quvvatining atigi 5 foizini tashkil etadi (Biturayev U., 2025:247).

Shunga qaramay, Markaziy Osiyoning infratuzilmaviy aloqasini – Kavkaz orqali kengaytirmasdan, G'arb va Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy almashinuv o'zining eng yaxshi darajasiga yetmaydi. Infratuzilma muammosini hal qilish uchun "O'rta yo'lak" Transkaspiy transport yo'nalishi sifatida rivojlantirilishi lozim. Sababi u Janubi-Sharqiy Osiyo va Xitoydan Qozog'is-

ton, Kaspiy dengizi, Ozarbayjon, Gruziya orqali Turkiya va Yevropaga, Rossiyani chetlab o'tadi. Bu dengiz yo'liga nisbatan transport vaqtini amaldagi 35-45 kundan 13-21 kunga qisqartiradi (Biturayev U., 2025:247).

Demak, Sharq va G'arb o'rtasida "ko'prik" bo'lishi kutilayotgan ushbu loyiha "Markaziy Osiyo – Janubiy Kavkaz – Turkiya" o'zaro bog'liqligini kuchaytirish orqali integratsiyaga zaruriy asos yaratishi mumkin. Bu nafaqat transport-logistika sohasida, balki transkaspiy energetika loyihalarini amalga oshirish orqali mintaqaviy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylanishi mumkin.

"Zangezur" yo'lagiga kelinsa, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mazkur transport yo'li milliardlab dollar qiymatiga ega loyiha bo'lib, Armanistonning Syunik viloyati orqali 43 km temir yo'l va avtomagistral qurishni nazarda tutadi. Bu Ozarbayjonning asosiy qismi, Naxchivon avtonom respublikasi va Turkiya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish imkonini beradi. Ozarbayjon o'z hududidagi qismni (Xoradiz – Ag'bend temir yo'li va avtomagistralni) to'liq tugatgan. Loyiha 2026-yilga qadar yakunlanishi kutilmoqda va o'tkazish quvvati yiliga 15 mln. tonnaga yetishi mumkin (President.az, 2025).

Zangezur yo'lagining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholovchi tadqiqotlarda qayd etilishicha, uning faoliyati allaqachon mintaqada yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keldi. Yangi yo'llar, transport tarmoqlari va logistika markazlarining qurilishi iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirdi. Yo'lak qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarining bozorga kirishini osonlashtirdi va shu bilan eksport imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijalar Zangezur yo'lagi nafaqat transport yo'li, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradigan strategik loyiha ekanligini ko'rsatadi (Hashimov E., Talibov A., & Iskandarov K., 2025:1). Umuman olganda, ushbu ikki transport yo'lagi nafaqat savdo hajmini oshirish, balki mintaqaviy o'zaro bog'liqlikni institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikki tomonlama munosabatlar kesimida farq-

lar, hali foydalanilmagan potensial saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar o'sishni ko'rsatmoqda. Markaziy Osiyo doirasida o'zaro savdo hajmi 2024-2025-yillarda 10,7 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Mutaxassislar fikricha, bajarilayotgan bo'xona va logistika muvofiqlashuvi hisobiga bu ko'rsatkichni 1,5-2 barobar oshirish prognoz qilinmoqda (Murojaatnoma, 2025). Demak, hisob-kitoblarga ko'ra, belgilangan marra – 20 mlrd. AQSH dollari hajmiga yetish.

Ozarbayjon tashqi siyosati ko'p vektorli xarakterga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida Janubiy Kavkaz, Markaziy Osiyo va Turkiy davlatlar hamkorligi tizimida faol ishtirok etadi. Bu holat mamlakatni mintaqalararo bog'lovchi davlat sifatida tavsiflash imkonini beradi.

XULOSA

Mintaqaning "Markaziy Osiyo hamjamiyati"ga tomon transformatsiya – zamonaviy davrning sivilizatsion chaqirig'iga berilgan javobdir. MOH doirasida mazkur bog'lovchi funktsiya Markaziy Osiyo davlatlari uchun tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va formatning tashqi aloqalarini diversifikatsiya qiladi. MOHning kengayishi jarayoni yaqin istiqbolda qator risklardan xoli bo'lmaydi. Birinchidan, "Markaziy Osiyo" atamasining geografik mazmuni kengayib, konseptual noaniqlik yuzaga kelmoqda. Ikkinchidan, a'zolar o'rtasida manfaatlar asimmetriyasi saqlanmoqda, ayniqsa suv resurslari va xavfsizlik masalalarida. Uchinchidan, Janubiy Kavkazda hal etilmagan nizolar transport loyihalarining to'liq amalga oshirishini cheklashi mumkin. Bu omillar MOHni to'liq integratsion ittifoq emas, balki muvofiqlashtiruvchi platforma sifatida baholashni talab qiladi.

Shunga qaramay, MOH o'zida integratsiyaning alternativ modelini ifodalaydi. U ko'proq davlatlar o'rtasidagi siyosiy iroda va amaliy loyihalarga tayanadi. Bu model qisqa muddatda samara berishi mumkin, biroq uzoq muddatda institutsional chuqurlashuv masalasini kun tartibiga chiqaradi.

Qayd etish mumkinki, Ozarbayjonning Markaziy Osiyo hamjamiyatiga to'laqonli a'zo sifatida qo'shilishi mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichini anglatadi. Bu Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasida strategik ko'prikn shakllantiradi hamda Kaspiy dengizining ikki qirg'og'i o'rtasida yagona hamkorlik makonini yaratadi.

Bu qaror geoiqtisodiy bog'liqlikni institutsional shaklga keltiradi va Markaziy Osiyoni Yevroosiyo makonida funksional platforma sifatida qayta ta'riflaydi. MOHning kelajagi uning deklarativ hujjatlariga emas, balki aniq transport, savdo va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M., (2025-yil 26-dekabr). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Adler, E., & Barnett M., (1998). Security communities in theoretical perspective. In E. Adler & M. Barnett (Eds.), Security Communities. chapter, Cambridge: Cambridge University Press.
3. Mirziyoyev Sh.M., (2025-yil 13-noyabr). Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida. <https://president.uz/oz/lists/view/8653>
4. Svante E. Cornell (22 September 2025). Institutionalizing Central Asian Regional Cooperation. <https://astanatimes.com/2025/09/institutionalizing-central-asian-regional-cooperation/>
5. Zakon.Kz (9 августа 2024 года). Концепция развития региональной кооперации «Центральная Азия – 2040». https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=33160965&pos=5;-106#pos=5;-106
6. Mirziyoyev Sh.M., (2025-yil 16-noyabr). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/8674>
7. Exclusive.Kz (25 ноября 2025 года). Центральная Азия плюс Азербайджан: риски и возможности. <https://exclusive.kz/centralnaja-azija-pljus-azerbajdzhan-riski-i-vozmozhnosti/>
8. President.Az (2024). Restoration of the Great Silk Road. <https://president.az/en/pages/view/azerbaijan/silkroad>
9. Alimov O'., (2026-yil 8-yanvar). Yangi Markaziy Osiyo arxitekturasi: institutsional integratsiya va Ozarbayjon omili. https://uza.uz/oz/posts/yangi-markaziy-osiyo-arxitekturasi-institutsional-integratsiya-va-ozarbayjon-omili_804500
10. Ochilov D. S., & Akramov J., (2025, June). O'zbekiston milliy manfaatlari tizimida Turkiy Davlatlar Tashkilotining tutgan o'rni. In International Conference on Global Studies (Vol. 1, No. 1).
11. Ismayilova A., (2025). Middle Corridor Momentum: The Future of East-West Trade. ADAUniversity, Analytical Policy Brief.
12. Isbilen S., (2025). Possible impacts of the Zangezur Corridor on the development of Central Asian states. Ordu Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi, 15(2).
13. Biturayev U., (2025). Germaniya Markaziy Osiyo hamkorligi: foydalanilmagan imkoniyatlar, cheklovchi omillar va ortib borayotgan talab. Collection of Scientific Papers "SCIENTIA", (January 24, 2025; Singapore). <https://previous.scientia.report/index.php/archive/article/view/2362>
14. Nazirov M., (2025). Turkiy davlatlar tashkiloti rivojlanishining Markaziy Osiyo uchun ahamiyati. International Journal of Scientific Researchers, 10(1). <https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/69236>

15. Hamzaoglu H., (2025). Belirsizlikler çağında bağlantısallık açısından Orta koridor'un artan stratejik önemi. In Gelişmeler Bağlamında Türk Dünyası Uluslararası Konferansı.
16. Эргашев Б., Примова, С., Бегджанова, З., (22 июля 2025 года). Аналитический доклад. Перспективы Среднего коридора: взгляд из Центральной Азии и Азербайджана. https://api-portal.gov.uz/uploads/5/2025/07/22/f69a434b-ed86-bed8-856e-f5744543331e_media_.pdf
17. Hashimov E., Talibov, A., & Iskandarov K., (2025). The Socioeconomic Impact of the Zangezur Corridor on the South Caucasus Region. Social Development and Security, 15(4).
18. Safoev S. S., (2022). Central Asia at the Crossroads. In Modern Central Asia: Regional Connectivity & Capacity Building (Collective Monograph). Tashkent: Fan ziyosi.
19. Niyazi, Aziz (2019). Founder of historical geography of Central Asia. To 150-anniversary of academician V. V. Bartold. Russia and the moslem world, (4 (306)).

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTINING “ISLOM MA’RIFATI” JURNALI

Mazkur nashr oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarining professor-o’qituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, magistrantlari, talabalari hamda kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.

Tahririyatning fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo’lmasligi mumkin.
Jurnaldan iqtibos olinganda manba qayd etilishi shart.

Bosh muharrir:

Uyg’un G’AFUROV

Bosh muharrir o’rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Mas’ul kotib:

Sirojiddin ShODMONOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

Manzlimiz: 100002, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk ko’cha, 47-uy.

Tel.: (+99871) 227-42-37

Web: <https://oliymahad.uz/> E-mail: islom-instituti@umail.uz

“MUHARRIR NASHRIYOTI” MChJ bosmaxonasida bosildi.

Bosishga 16.04.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.

Bosmaxona manzili: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
20A-mavze, So’galli ota ko’chasi, 5-uy.

E-mail: muharrir@list.ru

Bizni ijtimoiy tarmoqlar
orqali kuzating



Murojaat uchun:
+998 71 227 42 37

ISSN 2992-9091

N°1 2026